

**MIKROMOLIYALASHNING NAZARIY YONDASHUVLARI VA
IQTISODIY-IJTIMOIIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI****THEORETICAL APPROACHES TO MICROFINANCE AND ITS ROLE IN
SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT****Do'sboev O'tkir
Xidirovich***Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Bank hisobi va auditi"
kafedrasida dotsenti, PhD. E-mail: u.dustboev@tsue.uz***Annotatsiya
Annotation**

Uzb. - Maqola mikrokreditlash bo'yicha nazariy qarashlar, uning rivojlanish tendensiyalari, amaliyotda qo'llanilishi va ushbu tizimning o'ziga xos jihatlari o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mikrokreditlashning ijobiy va salbiy tomonlari aniqlangan, shuningdek, mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlari, nazariy qarashlari hamda iqtisodiy adabiyotlari tahlil qilingan. O'rganish va tahlillar asosida kredit tashkilotlarining jismoniy shaxslarni kreditlash samaradorligini oshirish, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - The article is dedicated to the theoretical perspectives on microcredit, its development trends, practical applications, and the distinctive features of the system. Based on the research findings, both the advantages and disadvantages of microcredit have been identified. Additionally, the article analyzes the scientific studies, theoretical views, and economic literature of both foreign and local scholars related to the topic. Relying on the conducted research and analysis, scientifically grounded proposals and practical recommendations have been developed to enhance the efficiency of lending to individuals by credit institutions and to address existing challenges.

**Kalit so'zlar:
Keywords:**

❖ *mikrokredit, mikroqarz, kredit, overdraft, iste'mol krediti, ssuda kapitali.*
❖ *microcredit, microloan, credit, overdraft, consumer credit, loan capital.*

Kirish.

Jahonda yuz berayotgan global iqtisodiy o'zgarishlar, xalqaro moliya va tovar bozorlarida keskin tebranishlar, inflyatsion kutilmalar va narxlar beqarorligi oqibatida kam ta'minlangan aholi qatlami daromadlarining o'sishi va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari cheklanib, mikromoliyalash xizmatlari ommabopligini oshirish, xizmatlar narxini pasaytirish va inklyuziv mikromoliyaviy mahsulotlar taklifini kengaytirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2025-2026

yillarda global iqtisodiy o'sish 2,7 foiz kutilayotgan bo'lsada biroq bu o'sish sur'ati pandemiyadan oldingi davrga nisbatan past bo'lib, uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun yetarli emas [7]. Savdo siyosatidagi o'zgarishlar, inflyatsiya, yuqori qarz va investitsiyalarning kamligi kabi omillar global iqtisodiy o'sishni cheklamoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu o'sish sur'ati kambag'allikni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun etarli emas.

Ushbu jarayonlar global miqyosda past daromadli aholi qatllariga ommabop

mikromoliyaviy xizmatlarni taqdim etish, mikromoliyalash infratuzilmasining raqamli ekotizimini rivojlantirish, mikromoliya tashkilotlarining moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va risklarni samarali boshqarishni talab etmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonda ham mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshirish, xizmatlar turini kengaytirish va ularning sifatini yanada yaxshilash zarurati yuzaga chiqmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

O.Lavrushin tadqiqotlarida, mikroreditlash aynan aholining past daromadli qatlamlari va kichik tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish vositasi sifatida e'tirof etiladi [1].

Э. Рид, Р. Коттер, Э. Гилл, Р. Смит tadqiqotlarida mikroreditlashni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning muvozanatli o'sishini ta'minlash, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni iqtisodiy faollikka jalb etish imkoniyati yuzaga kelishi qayd etilgan [2].

Г. Белоглазова va Л. Кроливеская tomonidan olib borilgan izlanishlarda kreditlash mexanizmlarini segmentlashtirish – ya'ni, korporativ mijozlar, kichik biznes va jismoniy shaxslar bo'yicha alohida yondashuvlar zarurligi ta'kidlanadi. Mikromoliyalash tizimi kichik miqdordagi, ammo keng ommani qamrab oluvchi kreditlar asosida faoliyat yuritadi va iqtisodiyotdagi moliyaviy inklyuziyani oshiradi [3].

F.Xolmamatov esa mikroreditlashni tijorat banklarining strategik faoliyat yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rib chiqadi. U kreditlashda axborot texnologiyalari va raqamli xizmatlarning joriy etilishi mikromoliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini asoslaydi [4].

Sh.Abdullayeva mikroreditlashni aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini rag'batlantiruvchi moliyaviy vosita sifatida baholaydi. U kreditlashda to'lov qobiliyatini baholash, garovsiz kreditlar mexanizmini

takomillashtirish va ayollar hamda yoshlarga yo'naltirilgan moliyaviy xizmatlarni kengaytirishni taklif etadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi.

Rivojlangan mamlakatlarda mikroreditlash xususidagi nazariy qarashlar, nobank kredit tashkilotlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarni kreditlash jarayoni, taqdim etilayotgan kredit mahsulotlari, kreditlash tartib va tamoyillari o'rganildi, kreditlash jarayonini tartibga solishning usullari va o'ziga xos jihatlari tahlil qilindi. Shuningdek, maqolada taqqoslash, ilmiy-nazariy qiyoslash, kuzatish, tizimli yondashuv kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mikroreditlash – bu kichik va o'rta biznes subyektlariga, shuningdek kam daromadli aholi qatlamiga cheklangan miqdordagi kredit resurslarini taqdim etish tizimi bo'lib, iqtisodiy rivojlanishning muhim vositasi hisoblanadi. Mamlakatimizda so'ngi yillarda mikroreditlash sohasiga alohida e'tibor qaratilib, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mikromoliyalash tashkilotlarining nazariy asoslari hamda ularning rivojlanish evolyutsiyasini chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Sababi, mikromoliyalash institutlarining nazariy poydevori va amaliy faoliyati nafaqat O'zbekistonda, balki MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari tomonidan hanuzgacha tizimli ravishda tadqiq etilmagan. Buning obyektiv va subyektiv sabablari quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Obyektiv sabablari:

Bozor iqtisodiyotiga o'tishdan avvalgi davrda nukreditlash – ya'ni nobank kredit tashkilotlariga talab bo'lmagani sababli bu turdagi moliyaviy muassasalar faoliyati yo'lga qo'yilmagan.

Mamlakatimiz bozor munosabatlariga o'tgani bilan, tegishli mexanizm va qoidalar yetarlicha ishlab chiqilmaganligi tufayli nobank kredit tashkilotlariga bo'lgan talab kuchli shakllanmagan.

Ushbu soha bilan bog'liq boshqa obyektiv to'siqlar mavjudligi – masalan, huquqiy-huquqiy bazaning yetarlicha mustahkam emasligi va mikromoliyalash tarmog'ining iqtisodiy sharoitlarga moslashishi bosqichma-bosqich kechayotgani.

Subyektiv sabablari:

Mikromoliyalash amaliyotining rivojlanganligi kamligi sababli amaliy ma'lumotlar va moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish manbasi sifatida foydalanish imkoniyati past.

Mikromoliyalash tashkilotlari xizmatlari hududlarni to'liq qamrab olmaydi, ya'ni inklyuziv mikromoliyaviy xizmatlar hali yetarlicha rivojlanmagan.

Mamlakatimiz moliya-kredit xizmatlari bozorida xalqaro standart va normalarning joriy etilmaganligi, shuningdek prudensial nazorat tizimini takomillashtirishga yetarli e'tibor qaratilmaganligi.

Shu bilan birga, mikromoliyalashga oid boshqa subyektiv omillar ham mavjud.

Bozor iqtisodi sharoitida biznesni boshlash va rivojlantirish moliyaviy mablag'larni jalb qilish imkoniyatiga bevosita bog'liq. Milton Fridman bu masalani aniq ifodalab:

“Kambag'allar kambag'alligicha qolavergan bo'ladi; bu holatga ularning mehnatsevar emasligi emas, balki kapital (moliyaviy resurs) jalb qilish imkoniyatining yo'qligi sabab bo'ladi”, deb qayd etgan [6].

Haqiqatan ham, mikromoliyalash tashkilotlarining asosiy vazifasi – jamiyatda o'z biznesini boshlayotgan mikro, kichik va o'rta biznes subyektlariga kreditlar ajratish, lizing orqali texnika va uskunalarni taqdim etish hamda aholining iste'mol kreditlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iboratdir. Biroq, bunday xizmatlarni tijorat banklari uchun

ko'pincha ko'p xarajatli va moliyaviy jihatdan foyda keltirmaydigan yo'nalish kabi baholashadi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, mikromoliyalash tashkilotlari dunyo qit'alari va mamlakatlarda o'ziga xos xususiyatlar va turli omillar ta'sirida tashkil topgan va rivojlangan.

Mikrokreditlar nochor mamlakatlarda kambag'allikni kamaytirish, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda esa foydani oshirish hamda qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish imkoniyatini beradi. Darhaqiqat, kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirish jarayonida moliyaviy resurslarga bo'lgan talab yuqori bo'lib, aynan shu ehtiyoj mikromoliyalash tashkilotlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga kuchli turtki bo'lgan. Rivojlangan mamlakatlarda esa mikromoliyalash moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, foyda olish va ish o'rinlarini kengaytirish maqsadida shakllantirilgan.

Shuningdek, aholini kambag'allikdan chiqarish va ularning to'lov qobiliyatini oshirish ham mikromoliyalashning muhim vazifalaridandir. Aholining iqtisodiy nochorligi va past to'lov qobiliyati qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, jumladan jinoyatchilik, talonchilik va boshqa salbiy holatlarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, makroiqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Talabning pasayishi esa ishlab chiqarish hajmiga, infratuzilma rivojiga va hududiy muvozanatga salbiy ta'sir etadi.

Mikromoliyalash tashkilotlari kambag'allikni kamaytirishda samarali moliyaviy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ularning afzalligi – aholi qatlamlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishi va ularni moliyaviy masalalarda mustaqil bo'lishga undashidir. Mikrokredit olgan shaxslar kreditni qaytarish mas'uliyati bilan birga o'z hayot darajasini oshirishga intiladi.

Bundan tashqari, mikromoliyalash

tashkilotlari mamlakat moliya-kredit tizimi barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shadi. Ular bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qilib, uni iqtisodiyotga yo'naltiradi. Bu milliy valyutaning aylanishini ta'minlab, ishlab chiqarish hajmini oshirishga yordam beradi va moliyaviy tizimga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, bu tashkilotlar yirik kreditlar ajratish imkoniyatiga ega emas, ularning vazifasi asosan mikrodarajadagi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishga qaratilgan. Mikromoliyalash tashkilotlari ko'pincha qimmat mikroqarzarlar taklif etadi, chunki qisqa muddatli va tez ajratiladigan kreditlar yuqori riskga ega bo'lib, yuqori foiz stavkalari bilan kafolatlanadi.

Aksar hollarda mikromoliyalash tashkilotlari davlat tomonidan bevosita qo'llab-quvvatlanmaydi, chunki ular xususiy mulkka asoslangan bo'ladi. Davlat faqat bilvosita tarzda – ustav kapitali va litsenziyalash talablarini yumshatish orqali yordam ko'rsatadi. Xalqaro tajribada mahalliy boshqaruv organlari mikromoliyalash tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashdan manfaatdor bo'lib, ularning samarali ishlashini ta'minlash maqsadida zarur infratuzilmalarni shakllantirish, binolar ajratish hamda biznes muhitini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Основы банковского дела: учебное пособие / коллектив авторов. Под ред. О.ИИ.Лаврушина. -4-е изд. перераб. и доп. –М.: КНОРУС. 2018. Стр. 213.*
2. *Э.Рид, Р.Коттер, Э.Гилл, Р.Смит. Коммерческие банки Перевод с английского А.А.Кандуарова, Т.Д.Масюковой. М.З.Штернграсс. Под редакцией В.М.Усоскина. 2-е издание. М.: "Космополис", 1991.*
3. *Основы банковского дела: учебное пособие / коллектив авторов. Под ред. О.ИИ.Лаврушина. -4-е изд. перераб. и доп. –М.: КНОРУС. 2018. Банковское дело: Учебник для вузов. 2-е издание. /Под ред. Г.Белоглазовой, Л.Кроливеской. –СПб: Путер, 2008.*
4. *Xolmatov F.K. Tijorat banklari kreditlash amaliyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoref. Toshkent: 2019. "Iqtisod-moliya", 2019. 11 b.*
5. *Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik. –Toshkent.: "Iqtisod-moliya", 2007. -171 b.*
6. *Friedman M. Capitalism and Freedom. – Chicago: University of Chicago Press, 1962. – 202 p.*
7. *Global Economic Prospects, January 2025 / The World Bank. Internet: www.worldbank.org*

Xulosa va takliflar.

Mikromoliyalash tashkilotlarining hududlar bo'yicha muvozanatli rivojlanmaganligi ham kuzatiladi. Bunga, bir tomondan, zarur infratuzilmaning yetishmasligi, ikkinchi tomondan esa mahalliy hokimiyatlar tomonidan yetarli darajada institutsional va tashkiliy qo'llab-quvvatlovning yo'qligi, shuningdek, sohaga ixtisoslashgan malakali mutaxassislar taqchilligi sabab bo'lmoqda.

Shu bilan birga, mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyatining shaffofligi va axborotga ochiqlik darajasi ham katta ahamiyatga ega. Faoliyatdagi oshkoralik darajasi – investorlar, omonatchilar hamda boshqaruv subyektlari ishonchini ta'minlashda muhim mezon hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mikromoliyalash tashkilotlari bozor iqtisodiyotining ajralmas moliyaviy bo'g'ini sifatida namoyon bo'lib, ularning tashkil topishi va rivojlanishiga turli obyektiv hamda subyektiv omillar ta'sir ko'rsatgan. Ushbu moliyaviy institutlar mikro, kichik va o'rta biznes subyektlariga zarur moliyaviy xizmatlarni taqdim etish orqali mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shmoqda.